

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*



CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

Ganiyeva X .JDPI o'qituvchisi

Boyqo'ziyeva .M. JDPI talabasi

Anatasiya: Chet tilini o'rganishdagi metodlar shuningdek, ularning qo'llash usullari va samaradorlik darajasi haqida. Yangi pedagogik talablar va tadbiriq etilgan jarayonlar tahlili.

Kalit so'z: O'yin faoliyati, til o'rganish talablari, kompetentlik.

Joriy yilda chet tillarini o'rganishga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Bunga davlatimizning mustaqillikdan keyin chet tilini rivojlantirishga qaratilgan farmon chora tadbirlari ham sabab bo'lmoqda. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yamoqda. Shuningdek, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan chet tillarini o'rgatish chora tadbirlari to'g'risida prezident qonuni chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Yurtimizda chet tilining o'qitilishi chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarining baholashining umumiyevropa tavsiyanomalari "CEFR"ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi ta'lim tizimining ajralmas qisimlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari har qanday kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Yuqorida aytib o'tilganlarning qatoriga o'quv kurslar yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi to'plamlari bilan tanishgan holda o'rganadilar. Bugungi kunda turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o'quv materiallarining katta to'plamlari mavjud. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati

yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi .1.Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi .Shu munosabat bilan o'qituvchilar va talabalar xorijiy tillarni zamonaviy o'qitishning usullari bilan tanishishlari kerak .Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarli usullarni tanlay bilish ko'nikmalari shakllanadi .Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi .O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi .2.Zamon ilgari lab borgani sari har sohada yangilik ko'payib bormoqda .Til o'rganishda ham turli uslublar paydo bo'lmoqda .Ingiliz tilini o'rganishda o'rganuvchining salohiyati va darajasi ,yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma- bosqich o'rganish yaxshi natija beradi .Bunday o'quvchilar boshlang'ich bosqichda o'qitish ,o'rta bosqichda o'qitish ,yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlarga bo'linadi .Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomonidan maxsus dastur ishlab chiqiladi .

Boshlang'ich bosqichda talaffuzga muhim etibor beriladi.Harmerning ta'kidlashicha “ suhbat davomida ona tilini biladiganlardan birinchi talab bu talaffuz” dir .O'quv jarayoning boshlanishida o'qituvchi asosiy etiborni o'quvchining talaffuziga qaratishi kerak .Grammatika va lug'at asosiysi hisoblansada, maruzachi talaffuzi noto'g'ri bo'lsa ,buning hammasi befoyda. Asl til egalari agar so'zlovchi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilsa nutqni grammatik xatolar bilan ham so'zlovchinig maqsadi nima ekanligini tushunishlari mumkin .Ingiliz tilini o'rganishning o'rta bosqichida asosiy etibor ko'proq matnlarning hajmiga va o'qib tushunishda fikrlashni,nutq faoliyatini ,tashabbuskorlikni oshirishga yordam beradigan usullardan foydalanish kerak .Ta'lim jarayonida o'tkaziladigan treninglarda nutq ko'nikmalarini shakllantrishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantrishga yetarli e'tibor berilishi kerak .Bundan tashqari ta'limda har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim .Shundagina o'quvchilar mustaqil, erkin fikrlay oladilar va irodalari tarbiyalanadi .

Unga ko'ra umumtalim maktablari, litsey, kasb-hunar kollejlari o'qivchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari, komputer, player, cd disklarisiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushinish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlavchining talaffuzi va grammatik qoidalarga rioya qilinganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalaridan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullaridan biridir. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatini jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va til o'rganishdagi kompetentligini oshirishga yordam beradi. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda inovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda. Bunga misollar "Quvnoq topishmoqlar (Merry riddles)" o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar. "Tezkor javob" "Quick answer" o'yin metodi orqali dars o'tilganda mavzuni mustahkamlashga va yangi so'zlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishga yordam beradi. "Hikoya Zanjiri"da "Story Chain" metodi o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirishga yordam bersa, "Rasmlar So'zlaganda" yani "When Pictures Speak" usuli esa ancha qulay bo'lib ingliz tilini o'rgatishda talaba o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanadi. "Savol kartoshkalari" - "Quiz Cards" o'quvchilarining soniga qarab kartoshkalari tarqatiladi va hamma talabalar bir paytda darsda ishtirok etish imkoni beradi bu esa vaqtni tejaydi. Har bir inovatsion texnologiyaning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Ingliz tili darslarida inovatsion

usullarini qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitish jarayonida o'spirinlarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu muammoni yechish yo'llarini qidirib topmoqda va bosqichlarga bo'lib o'rgatilmoqda. Birinchi bosqich boshlanib birinchi bosqich boshlang'ich ta'lim darajasi (1-4-sinflar). Ushbu bosqichda bolalar uzoq muddatli xotiraga ega bo'ladi. Ularga o'yinlar orqali o'rgatish mumkin. Va ular u yoshda qo'shiqlarni tezda o'rganadilar. Ikkinchi bosqich o'rtacha ta'lim darajasi (5-9-sinflar) ushbu bosqich o'quvchilari allaqachon chet tilini bilish darajasiga erishgan bo'ladi. Chet tili o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish, til o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Hozirgi kunda chet tilini bilish katta ahamiyatga ega bo'lib, uni o'rganishda quyidagi usul ham samarali hisoblanadi, yani ingliz tilidagi kino va filmlarini taqdlid qilgan holda ko'rish va og'zaki nutqda namoyon qilish.

Xulosa qilib shuni takidlash joizki, har qanday metodlar va yondoshuvlarning samaradorligi har ikkala tarafning yani talabalar va ustozlarning intilishlariga va jarayonga to'g'ri fikr bildirga olish bilan baholanadi.